



SANOAT KORXONALARIDA MAHALLIY XOMASHYO ULUSHINI OSHIRISH ORQALI IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISH

Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

e-mail: hamidullonematullaev.07@gmail.com

Egamberdiyev Shavkatbek

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

e-mail: shavkatbekegamberdiyev79@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston sanoat korxonalarida mahalliy xomashyo ulushini oshirish orqali importga qaramlikni kamaytirish masalasini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Mahalliyashtirish siyosati mamlakat iqtisodiyotida barqaror rivojlanish va eksport salohiyatini mustahkamlashning muhim omili sifatida qaraladi. Maqola mavzusi doirasida sanoat tarmoqlaridagi xomashyo ta‘minoti, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik, ishlab chiqarish jarayonlarida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *xomashyo ulushi, importga qaramlik, iqtisodiy barqarorlik, qo‘shilgan qiymat, eksport salohiyati, integratsiya tizimi.*

Kirish.

O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi bir necha yilda sanoat sektorini chuqur qayta ishlash va importga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish yo‘nalishida izchil o‘sish ko‘rsatmoqda. Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2017-2023 yillar mobaynida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshib, 2023-yilda taxminan



655,8 trillion soʻmga yetdi, bu koʻrsatkich hududiy investitsiya faolligi va mahalliy resurslarni qayta ishlash siyosatining samarasini aks ettiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining maʼlumotlariga koʻra, davlat tomonidan 2022-yil uchun qabul qilingan mahsulot ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish dasturi doirasida 2 455 ta loyiha orqali qariyb 37 trillion soʻmlik yangi mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bu esa mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va import qilinayotgan mahsulotlarni oʻzlashtirish yoʻlidagi davlat siyosatining jiddiy yoʻnalishini belgilaydi.

“Oʻzkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati misolida ham mahalliyashtirish siyosati natijalari yaqqol koʻzga tashlanadi: 2025-yilda jamiyat tomonidan 29 turdagi mahalliy mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy qiymati 2,3 trillion soʻmni tashkil etdi, bu koʻrsatkich rejaga nisbatan 141,4 %ni tashkil etadi. Bu mahsulotlar ichida natriy sianid, poliakrilamid, karbamid kabi xomashyodan yuqori tayyor mahsulotlarga oʻtish imkonini beruvchi turlar borligi, ularning nafaqat ichki bozor ehtiyojini qondirish, balki eksport salohiyatini kengaytirishda ham muhim rol oʻynashi qayd etilgan. Shu bilan birga, hududlarda ham mahalliyashtirish dasturlari faol amalga oshirilmoqda. Masalan, Samarqand viloyatida 2025-yilda 119 ta loyiha boʻyicha 2,8 trillion soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan boʻlib, import oʻrnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish orqali yangi ish oʻrinlari yaratish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish strategiyasi ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan. Bu omillarni hisobga olgan holda, maqola sanoat korxonalarida mahalliy xomashyo ulushini oshirish orqali importga boʻlgan qaramlikni kamaytirish jarayonini tizimli tahlil qiladi, mahalliyashtirish siyosatining iqtisodiy samaradorligini koʻrsatadi hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yoʻllarini aniqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mahalliy xomashyo ulushini oshirish va importga qaramlikni kamaytirish masalalari soʻnggi yillarda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida sanoat mahsulotlarini



chuqur qayta ishlash, import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu jihatdan, mahalliyashtirish jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat iqtisodiyoti va mahalliyashtirishning iqtisodiy samaradorligi alohida o‘rganilgan. Masalan, A.Ortiqov tomonidan yozilgan “Sanoat iqtisodiyoti” kitobida sanoat tarmoqlarida xomashyoni qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish [1], shuningdek, importga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish masalalari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, I.S.Xotamov va G.R.Madraximova tomonidan yozilgan “Sanoat iqtisodiyoti” kitobida mahalliy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari amaliy misollar bilan yoritilgan [2].

Empirik tahlillarda esa rasmiy statistik ma‘lumotlar muhim manba hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2017–2023 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada o‘shishini qayd etgan. Shu bilan birga, “O‘zkiyosanoat” AJ ma‘lumotlariga ko‘ra, mahalliy xomashyo ulushini oshirish natijasida importga qaramlik kamayib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirgan [3].

Normativ-huquqiy hujjatlar ham mavzuni amaliy jihatdan yoritishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2698-son qarori mahalliyashtirish siyosatining institutsional asoslarini belgilab, sanoat korxonalarida importga qaramlikni kamaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirishga qaratilgan [4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni



mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida" PQ-4426-son qarori esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, importning o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni moddiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilaydi [5]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4949-son qarori [6] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-47-son Farmoni ham eksportga yo'naltirilgan sanoat mahsulotlarini rag'batlantirish va qo'shilgan qiymatni oshirish mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan [7].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar, empirik tahlillar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy xomashyo ulushini oshirish siyosati sanoat korxonalarida importga qaramlikni kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Izlanishlar jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Birinchi navbatda, nazariy tahlil metodi yordamida sanoat iqtisodiyoti, mahalliyashtirish va importga bo'lgan qaramlik masalalariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va rasmiy manbalar o'rganildi. Shu yo'l bilan mahalliy xomashyo ulushini oshirishning nazariy asoslari, iqtisodiy samaradorlik va qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlari aniqlangan.

Ikkinchi metod sifatida empirik tahlil qo'llanildi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "O'zkimyosanoat" AJ yillik hisobotlari, Yevroosiyo Taraqqiyot Banki tahlillari va boshqa rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi.



Shu asosda sanoat korxonalarida mahalliy xomashyo ulushi, importga qaramlik darajasi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari aniqlanib, mahalliy lashtirishning real samaradorligi o'rganildi.

Maqolada shuningdek, korrelyatsion va solishtirma tahlil metodlari qo'llanilib, mahalliy lashtirish darajasi bilan qo'shilgan qiymat o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Turli sanoat tarmoqlari va hududlar bo'yicha solishtirma tahlil natijalari esa mahalliy xomashyo ulushi oshirilganda importga qaramlik qanday kamayishini ko'rsatdi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2698, PQ-4426, PQ-4949 qarorlari va PF-47 Farmoni o'rganildi. Bu hujjatlar mahalliy lashtirish siyosatini shakllantirish, korxonalarda amaliy tadbirlarni amalga oshirish va importni qisqartirish bo'yicha normativ-huquqiy asoslarni belgilaydi.

Izlanishlar davomida 2017–2025 yillarga oid ma'lumotlar tahlil qilindi, bu esa mahalliy xomashyo ulushini oshirishning iqtisodiy natijalarini, qo'shilgan qiymat va eksport salohiyatiga ta'sirini tizimli baholash imkonini berdi. Shu bilan birga, mahalliy lashtirish siyosatining amaliy samaradorligi va korxona darajasidagi iqtisodiy foydasi aniqlangan.

Tahlil va natijalar.

Mahalliy xomashyo ulushini oshirish orqali importga qaramlikni kamaytirish masalasi O'zbekiston sanoat tarmoqlari uchun eng dolzarb strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda va sanoat korxonalari faoliyati ham sezilarli darajada kengaymoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning birinchi yetti oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 575,6 trillion so'mni tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 6,5% ga o'sdi. Shu bilan birga, mahalliy xomashyo ulushi sezilarli darajada oshib, sanoat korxonalari importga qaramlikni 28–30% gacha kamaytirishga erishdilar. Bu o'sish nafaqat ishlab chiqarish hajmining oshishini, balki mahalliy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni ham ko'rsatadi.



Izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy xomashyo ulushi oshgan sari qo'shilgan qiymat ham sezilarli darajada ortmoqda. Masalan, kimyo sanoati tarmog'ida mahalliy xomashyo ulushi 78,5% ga yetgan bo'lsa, qo'shilgan qiymat o'sishi 11,5% ni tashkil etdi. Mashinasozlik tarmog'ida mahalliy xomashyo ulushi 72,3% bo'lib, qo'shilgan qiymat o'sishi 10,9% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarmoqlarida mahalliy xomashyo ulushi 64–68% gacha ko'tarilgan va qo'shilgan qiymat o'sishi 9–10% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, mahalliyashtirishning samaradorligi tarmoqlar bo'yicha sezilarli farq qilsa-da, barcha sanoat yo'nalishlarida barqaror o'sish kuzatilmoqda.

Mahalliy xomashyo ulushi oshishining asosiy omili Prezident Shavkat Mirziyoyevning mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy qarorlari hisoblanadi. Jumladan, PQ-4426-son qarori mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni moddiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgiladi. Shuningdek, PQ-4949-son qarori eksportga yo'naltirilgan sanoat mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish mexanizmlarini mustahkamladi. 2025-yilda qabul qilingan PF-47 farmoni esa qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirib, eksport jarayonlarini soddalashtirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, mahalliy xomashyo ulushi oshgani sayin korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi ortmoqda. Sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymat yaratish jarayoni kengayib, importga bo'lgan qaramlik kamaymoqda. Shu bilan birga, mahalliyashtirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va milliy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirishning rivojlanishi eksport salohiyatini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning



raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Yana qo'shimcha qilib aytish mumkinki, mahalliy lashtirishning samaradorligi tarmoqlar bo'yicha turlicha bo'lsada, barqaror tendensiya mavjud. Kimyo va mashinasozlik tarmoqlarida mahalliy xomashyo ulushi yuqori bo'lib, qo'shilgan qiymatning o'sishi ham yuqori darajada bo'ladi, bu esa korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini va eksport imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. To'qimachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarmoqlarida mahalliy lashtirish natijalari barqaror o'sishni ko'rsatadi, bu esa mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu asosda, tahlil natijalariga ko'ra, mahalliy lashtirish siyosatini davom ettirish va rivojlantirish sanoat korxonalarida importga qaramlikni kamaytirish, qo'shilgan qiymat yaratish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Raqamlar va normativ-huquqiy hujjatlar ko'rsatadiki, mahalliy xomashyo ulushi oshishi bilan sanoat tarmoqlarida barqaror o'sish, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi va eksport salohiyatining kuchayishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, tarmoqlar bo'yicha qo'shilgan qiymat yaratish va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish mahalliy lashtirishning eng muhim natijasi sifatida ajralib turadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy xomashyo ulushini oshirish sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi, importga qaramlikni kamaytiradi va milliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlari samaradorligi ortib, tarmoqlar bo'yicha barqaror o'sish yuzaga keladi. Mahalliy lashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki eksport salohiyatini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Mahalliy xomashyo ulushini oshirishni davom ettirish va sanoat korxonalarida milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishni ta'minlash.



2. Mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport qilishni rag'batlantirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

3. Qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlarini rivojlantirish, jumladan ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

5. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash va yangi qarorlar orqali mahalliyashtirish siyosatini yanada samarali qilish.

6. Sanoat tarmoqlari bo'yicha monitoring tizimini yaratish va real vaqtda natijalarni baholash orqali samaradorlikni oshirish.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, mahalliyashtirish siyosatini yanada rivojlantirish va importga qaramlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin bo'ladi. Shu tariqa, sanoat korxonalari qo'shilgan qiymat yaratish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti / darslik. A. Ortiqov. Toshkent: "Sano-standart", 2014. - 304 bet.
2. I.S.Xotamov, G.R.Madraximova. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 252 bet.
3. "O'zkiyosanoat" AJ. Yillik sanoat faoliyati va mahalliyashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar. www.uzkiyosanoat.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.12.2016 yildagi PQ-2698-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.08.2019 yildagi PQ-4426-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.01.2021 yildagi PQ-4949-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.03.2025 yildagi PF-47-son.



8. Mavludaxon T., Shavkatbek E. O 'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 61. – №. 6. – C. 100-105.
9. Turginova M. THE CONCEPT, CONTENT, AND NECESSITY OF" GREEN ECONOMY" //Journal of Applied Science and Social Science. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 162-169.
10. Turginova M. THE CONCEPT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP AND ITS UNIQUE UNDERSTANDING OF DEVELOPMENT //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 275-281.
11. Otabek O., Shavkatbek E. Raw Materials in Industry and Its Properties //Eur. J. Artif. Intell. Digit. Econ. – 2024. – T. 1. – C. 51-54.
12. Shavkatbek E. et al. YENGIL SANOAT TARMOQLARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – T. 37. – №. 4. – C. 200-208.
13. Xushnudxanovna S. O., Shavkatbek E. MAHALLIYLASHTIRISH VA IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 4. – C. 90-96.
14. Shuhratbek o'g'li E. J., Shavkatbek E. YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA XOM ASHYO IMPORTINI MAHALLIYLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 4. – C. 97-105.